

ZAMONAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARNING TURIZMNI IQTISODIYOTNING DRAYVERIGA AYLANTIRISHDAGI O`RNI

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich

Iqtisodiyot kafedrası o`qituvchisi, Qarshi davlat universiteti

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar: turizm sektori, destinatsiya, drayver, menejment, strategiya, yuqori daromad, yagona tarmoq, uzluksiz sayohat, zanjir tizimi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizmni iqtisodiyotning drayveriga aylantirishda prinsipal roʻl oʻynaydigan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va uning yangi sivilizatsiyasini shakllantirish, orqali turizmni iqtisodiyotning drayveriga aylantirish metodlarini shakllantirishga doir xulosa va takliflar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Kirish.

Turizm iqtisodiyotning eng yangi rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir va uni iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylantirish juda muhim hisoblanadi va ushbu ishni amalga oshirish uchun zamonaviy boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish bugungi zamonaviy iqtisodiyotning eng asosiy maqsadlaridan biridir. Ushbu masalani amalga oshirish uchun yurtimizda juda koʻp salmoqli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda, bunga yaqol misol qilib Prezidentimizning farmonida “2021 — 2025-yillarda — mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini koʻpaytirish; ushbu yoʻnalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targʻib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2017-yil yakuni boʻyicha — 2,3%) yetkazish, shuningdek, 2025-yil yakunida 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan xorij mamlakatlaridan — 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan” ligi oʻz aksini topgan. Shuningdek, turizm soʻnggi yillarda eng taraqqiy etgan davlatlar ham turizm rivojiga katta eʼtibor qaratilayotganidan koʻrish mumkinki, bu soha haqiqatan ham iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanyapti. Ayniqsa, sohaning aholi bandligini taʼminlashdagi oʻrni muhim boʻlmoqda. Misol uchun, oʻtgan yili ushbu sohada 430 million kishi ish bilan taʼminlangan boʻlib, bu dunyoda yaratilgan barcha ish oʻrinlarining toʻqqizdan bir qismini tashkil etadi.¹ Ammo shunday boʻlishiga qaramasdan yurtimizda turizm tarmogʻi toʻlaqonli iqtisodiyot darayveriga aylanganicha yoʻq, shuningdek, buning uchun turizm tarmogʻida deyarli boshqaruv strategiyalari va turizm sanoatida talab va taklif mezonlari yetarli darajada shakllantirilmagan. Ushbu jarayonlarni inobatga olgan holda zamonaviy turizm menejmenti va uning yangicha strategiyalarini ishlab chiqishga doir prinsipial yechimlar ushbu maqolada oʻz tasdigʻini topadi.

Metodologiya

Tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash, iqtisodiy hisob-kitob, ekspert baholash va monografik kuzatish usullaridan keng foydalanildi. Turizm – bu hordiq chiqarish

¹ parliament.gov.uz/news/turizm-haqiqiy-manoda-iqtisodiyotning-drayveriga-aylandi

va dam olish sog'lomlashtirish mehmondorchilik, kasbiy va ish maqsadlarida insonlarning bo'sh vaqtida o'zlarining doimiy yashash joylaridan vaqtinchalik boshqa davlatlar yoki joylardagi vaqtinchalik dam olishidir va albatta foyda olishni maqsad qilmagan holda. Demak biz birinchi navbatda turizmni iqtisodiyotning drayveriga aytantirishimizdan oldin uning iqtisodiyotga ta'sirlarini o'rganishimiz lozim.

Umumiqtisodiy omillar turizmga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijobiy ta'sir omillariga quyidagilar kiradi:

1. Yuqori real daromad;
2. Muntazam ravishda bir xil daromadlarning taqsimlanishi;
3. Barqaror valyuta.

Turizmga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy inqiroz;
2. Ishsizlikning oshishi, ish haqining kamayishi;
3. Valyuta bilan nobarqaror holat.

Demak iqtisodiyotdagi ushbu omillar turizmga yuqori ta'sirini o'tkazar ekan ularni o'rganishimiz hamda salbiy ta'sirlariga qarshi va ijobiy ta'sirlarini kuchaytiruvchi boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishimiz lozim hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni yanada mukamallashtirishimiz uchun Prezidentimiz tomonidan Turizm sohasini O'zbekiston iqtisodiyotining kuchli drayveriga aylantirish maqsadida uning quyidagi xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash vazifalari belgilandi:

- UNWTO turizm tez rivojlanayotgan mamlakatlar ro'yxati reytingida 2019-yildagi 4-o'rindan 2026-yilda 3-o'ringa erishish, sayyohlar uchun xavfsiz mamlakatlar reytingi (180 mamlakatlar orasida) 2020 yildagi 46-o'rindan 2026-yilda 20 ta eng xavfsiz mamlakatlar ro'yxatiga kirish;
- Global Muslim Travel Index halol turizm reytingi 2020-yildagi 7- o'rindan 2026-yilda 3-o'ringa erishish va Sayohat va turizmning raqobatbar-doshligi indeksida O'zbekistonni 2026-yili birinchi 50 talikka kiritish maqsad qilib belgilandi
- O'zbekiston turizmidagi islohatlarning qator xalqaro e'tiroflari sifatida Ispaniyaning Madrid shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan millatlar tashkilotining Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assam-bleyasi 2023 yilda Samarqand shahrida o'tkazilishi bo'ldi. Ushbu Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasida davlatimiz rahbari nutqi [davomida qator dolzarb va fundamental takliflarni ilgari surdilar:
- Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish;
- Tashkilotning "Yashil" turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis etish;
- Tashkilot doirasida 2025-yilni "Butun jahon inklyuziv turizm yili" deb e'lon qilish va maxsus deklaratsiya qabul qilish;
- Butunjahon turizm tashkiloti huzurida Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish;
- Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasida iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etadi;
- Jahon yoshlar turizmi sammitini Toshkentda o'tkazish;
- "Ipak yo'li" brendini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun Tashkilotning maxsus xalqaro mukofotini ta'sis etish;

- Yetakchi ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar va eng yaxshi sayohat blogerlarini o'zida birlashtir-adigan Global media kampusinini tashkil etish. Shuningdek, sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar ken-gashining birinchi yig'ilishini qadimiy Buxoro shahrida, birinchi global media kampusni mamlakatimizda o'tkazish tashabbusi bildirildi²

Ushbu maqsadlarga erishish uchun yangicha menejmet startegiyasini ishlab chiqsh lozim bo'ladi. Dastlab turizmni boshqarish texnologiyasini aniqlaydigan bo'lsak; Turizmni boshqarish texnologiyasi sayyohlik va turizm sanoatining turli jihatlarini tartibga solish va yaxshilash uchun foydalaniladigan raqamli vositalar, dasturiy ta'minot va platformalardan foshdalanishni anglatadi. Ushbu texnologiyalar bir nechta maqsadlarga qaratilgan ular quyidagilar quyidagilar:

- ✓ Korxonalar uchun operatsion samaradorlikni oshirish;
- ✓ Mijozlarning tajribasini yaxshilash;
- ✓ Ma'lumotlarni tahlil qilish va yangicha qarash;
- ✓ Turizmدا barqarorlikni rag'batlantirish.

Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi iqtisodiy faoliyat turlarini, jumladan turizmni tarmog'ida infartuzilma shakllanishini yanada yaxshiladi. Raqamli komunikatsiyalarning maqsadi iqtisodiyotda katta axborotlarni olish imkonini yaratadi. Potensial sayyohlarga keng imkoniyatlarni yaratish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham keng foydalanildi³. Shuning bu bajarligan keng ko'lamli ishlar ham mukammal menejment strategiyasi yo'qligi tufayli o'z yechimini topmadi. Demak olimlar fikriga qaraydigan bo'lsak.

Turizm boshqaruvi to'g'risida Fang Zhao, Joseph Wallis, Mohini Singh lar o'z ilmiy qarashlarida "axborot texnologiyalari va hukumat o'rtasidagi munosabatlarga oid adabiyotlar uzoq vaqtdan beri nazariy rivojlanish va empirik testlarning kamligidan aziyat chekkib kelmoqda, ammo ta'kidlab o'tish joizki raqamli iqtisodiyotning kirib kelishi mahalliy boshqaruvni ham raqamlashtirishga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Demak raqamlashtirish boshqarishdagi bir qator muammolarni hal qilib berishi mumkin" deb takidlaydi.⁴

M. A. Shneps-Shneppe va Namiot D. E. o'zining tadqiqotlarida hududlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali boshqaruvni takomillashtirish, AKT sohasini rivojlanishning asosiy bo'g'ini ekanligi va uning xususiyatlari to'g'risida nazariyalarini tadqiq etib o'tishgan L. V. Lapidus o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar evolyutsiyasi ta'siri ostida mahalliy boshqaruvda aholini biznesga yo'naltirish, biznes modellarini yaratish nuqtayi nazaridan elektron biznes va elektron tijoratni boshqarish bo'yicha nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan⁵.

Turizmni rivojlantirish darajasi mamlakat, uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi farovonligini tavsiflovchi parametrlardan biridir. Turizm shuning uchun juda ko'p davlatlarning iqtisodiyotida drayver bo'lib xizmat qilmoqda Shuningdek, turizm axborotga boy soha bo'lib, unda axborotni yig'ish, uzatish, tahlil qilish hamda saqlash sohaning barcha darajalarida qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuni inobatga olgan holda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish turizm sohasida eng katta ahamyat kasb etadi va unda zamonaviy axborot-

² Tuxliyev, I. (2024). Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(1).

³ Z.O. Raximov (2022). O'zbekistonda turizm sohasida raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muhimligi. Builders of the future, 2 (2), 221-227. doi: 10.37547/builders-v2-i2-33

⁴ Fang Zhao Joseph Wallis Mohini Singh, (2015), "E-government development and the digitaleconomy: a reciprocal relationship", Internet Research, Vol. 25 Iss 5 pp. 734 – 766 https://www.researchgate.net/publication/283102868_E-government_development_and_the_digital_economy_a_reciprocal_relationship

⁵ Шнепс-Шнеппе М.А., Намиот Д.Е. Цифровая экономика: телекоммуникации – решающее звено. –М: Горячая линия. –Телеком, 2018. –150 стр

kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash lozim bo'ladi⁶ va shuni ham aytib o'tish joizki mamlakatimizga 2022-yil davomida tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 5,2 million nafar (yillik reja-2,7 mil-lion nafar)ni tashkil etgan, 2023-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlarning soni 7,0 million nafar bo'lib, 2022-yilga nisbatan 133,7 foizga oshgani aniqlandi. O'zbekistonga kelgan turistlarning sayohat davomiyligi 4-5 kungacha, sarflagan mablag'lari 305 dollargacha ko'paygani (bu 2019-yilda o'rtacha 3 kunni tashkil etib, sayyohlar 195 dollar sarflagan) natijasida pandemiyadan keyin turizmni qayta tiklanish holati boshlanganidan dalolat beradi va bu turizmni iqtisodiyotning drayveri sifatida yanada rivojlantirishimizga yana bir turtki boladi.

Tahlil va natijalar

Turizmni iqtisodiyotning drayveriga aylantirish uchun bir necha bor takliflar va metodlar berib o'tilgan, ammo barcha takliflar asosan ko'proq zamonaviy axborot texnologiyalarga yechim sifatida qaratilgan. Shuni aytib o'tish lozimki turizm zamonaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisasi bo'lib, jamiyat hayotiga mustahkam o'nasha oladigan va uning evolyutsiyasi natijasi va ta'siri orqali yuqori milliy va xalqaro dinamikaga ega bo'lgan iqtisodiyotni shakllantirish mumkin bo'ladi. Turistik faoliyati shuningdek, eksportning o'ziga xos shaklidir - uni ko'rinmas eksport sifatida ham etirof etish mumkin, klassik eksportning kamchiliklarini bartaraf etadi, chunki chet ellik iste'molchilar o'zlari turizm mahsulotini eksport qiluvchi mamlakatga keladilar. Ko'rinmas savdoga mansubligi orqali turizm eksportning o'sishi va diversifikatsiyasiga katta hissa qo'shmoqda. Har bir mamlakatning o'ziga xos sharoitlariga qarab, turizmni eksport yoki import sifatida shakllantiradi. Shu sababli, turistlar mamlakatda harakatlanishlari davomida iste'mol qiladigan tovarlar va xizmatlarini eksport bilan bog'liq bo'lgan mamlakatga borishi va ne'matlarni istemol qilishi, yoki turistlarning o'z yashash mamlakati uchun chet elda qilgan xarajatlari esa import sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun xalqaro sayyohlarning xarajatlarining ortishi xalqaro savdo hajmining oshishiga olib keladi. Turizm davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi. To'g'ridan-to'g'ri ishtiroki turizmdan olinadigan foydani soliqqa tortish va turistlarga to'g'ridan-to'g'ri soliq solish orqali turizm sohasi xodimlarining ish haqiga soliqlar hisobiga shakllanadi. Bilvosita ishtiroki turistlarga taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar uchun soliqlardan kelib chiqadi. Turizm sektori boshqa xalqaro turistik yo'nalishlarda mahalliy firmalar va tegishli korxonalar o'rtasidagi raqobatni rag'batlantirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi va kommunal xizmatlar va transport infratuzilmasi, shu jumladan yo'llar, aeroportlar, portlar, elektr energiyasi, kanalizatsiya, suv va aloqa infratuzilmalaridan foydalanadilar va bu daromadlarning oqimini oshiradi. Shuningdek, turizm sohasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kapital texnologiyalari, malakalar, nou-xau, mahalliy tovarlarga bo'lgan talab, savdo balansini yaxshilash, barqaror rivojlanishning muhim sektorini o'z ichiga oladi. Transport infratuzilmasini (havo, transport, temir yo'l va avtomobil yo'llari) yaxshilash orqali shahar-qishloq tarmog'ini mustahkamlash (ham turistlar, ham rezidentlar) harakatchanligini oshiradi, tovarlarning uzluksiz oqimini (ichki va tashqi) yanada yuqorilashini ta'minlaydi, mahalliy raqobatbardoshlik va xavfsizlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari, turizm ishchi kuchi harakatchanligini oshirish orqali mahalliy iqtisodiyotlarga foyda keltiradi. Pul o'tkazmalari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim daromad manbaiga aylandi. Turizm mahalliy daraja miqyosdagi iqtisodlardan ijobiy foydalanishga yordam beradi va texnik bilimlarni tarqatish uchun ta'sirchan vositachi hisoblanadi, shuning uchun ushbu soha bo'yicha tadqiqot va ishlanmalarni, hamda inson kapitalini to'plashni rag'batlantirish muhim hisoblandi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'zaro bog'liq bo'lib, ular o'rtasida sodir bo'ladigan ayirboshlash natijasida ma'lum o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Turizm faolligining o'sishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham qator ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mutaxassislar turizm xarajatlarining iqtisodiy ta'sirini o'lchashga yordam beradigan uchta elementni ko'rib chiqadilar:

➤ To'g'ridan-to'g'ri;

⁶ O'zbekxonov, S. ., Bo'ltakov, S. ., & Ko'charov, X. . (2022). Turizm sohasida raqamli iqtisodiyotni ahamiyati. *Yevroosiyo Akademik tadqiqotlar jurnali* , 2 (12), 60–62. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7958> dan olindi

- Bilvosita;
- Induktsiyali⁷.

To'g'ridan-to'g'ri ta'sir turizm sohasidagi xarajatlarni anglatadi. Shu sababli, turistlar mehmonxonalar, restoranlar, transport, aloqa va chakana savdo shaxobchalarida pul sarflasa, bu to'g'ridan-to'g'ri daromadlar, davlat daromadlari, bandlik va tovar va xizmatlarning to'g'ridan-to'g'ri importiga olib keladi. Bilvosita ta'sir turizm sohasida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun oraliq iste'molni anglatadi. Bu turistik kompaniyalar o'z etkazib beruvchilaridan sotib oladigan, turizm sektorining ta'minot zanjirini tashkil etuvchi tovarlar va xizmatlardir. Bilvosita ta'sirlar mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni jalb qilishi mumkin va mamlakat yoki mintaqada turizmdan olinadigan daromadning iqtisodiy ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun turizm sohasida mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olishni rag'batlantirish muhimdir. Induktsiyalangan hissa turizm sanoatida bevosita yoki bilvosita band bo'lganlarning xarajatlari bilan qo'llab-quvvatlanadigan YaIM va ish o'rinlarini o'lchaydi. U oziq-ovqat va ichimliklar, dam olish, transport, uy-joy va uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalarga sarflanadigan xarajatlarni o'lchaydi. Shuning uchun ham turizm iqtisodiyotning har bir tarmo'g'ida juda katta multipikator effektga ega hisoblanadi. Ammo turizmni yanada yuqori ta'sirini oshirish uchun yuqoriroq daromad olish yo'larini topish lozim bo'ladi. Shuning uchun uchun uzoqroq vaqt ularni eksport qiluvchi mamlakatda saqlab qolish kerak bo'ladi. Buni qanday amalga oshirish mumkin degan savolga albatta shuni aytib o'tish mumkinki, zamonaviy boshqaruv tizimlari orqali, bizga ma'lumki bizning mamlakatimizga tashrif buyuradigan turistlarning ko'pchiligi mavsumiy tashrif buyuruvchi turistlardir. Ularni shuningdek umumiy sayohat muddati bir haftani tashkil etadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun biz butun O'zbekiston bo'ylab bitta boshqaruv ostidagi turizm tarmog'ini shakllantirishimiz lozim bo'ladi. Ya'ni bu nima degani butun yurtimizning barcha tarmoqlarini va turistik markazlarini tashkil etuvchi bitta boshqaruv ostidagi turizm agentligini tashkil etishdir. Bu qanday amalga oshiriladi? Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun bir qancha shartlarni bajarish lozim bo'ladi, bular:

- ✓ Butun mamlakat miqiyosida turistik destinatsiyalarni to'plash;
- ✓ Bitta tarmoqqa birlashtirish;
- ✓ Uzluksiz sayohat rejimini shakllantirish.

Ushbu shartlar bajarilishi natijasida butun yurtimiz bo'ylab uzoq vaqt sayohat qilish imkoni shakllantiriladi. Yani ushbu tizim zanjirsimon shakilda harakatlanadi. Qaysi fasl yoki qanday vaqt bo'lishidan qat'iy nazar butun mintaqada turizm salohiyatiga ega bo'ladi.

Xulosa

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, turizm sohasidagi xizmatlar tarqmog'ini bitta boshqaruv ostida birlashtirish orqali turistlarni uzoqroq vaqt bir hududda saqlab qolish imkoniyatini yaratadi. Ushbu turizmni boshqarish tizimi bizning yurtimiz uchun jozibador iqtisodiy jonlantirish strategiyasi bo'lishi mumkin, ayniqsa tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir boshqaruv ostidagi uzluksiz harakatlanuvchi turizm tizimini shakllantirish sayohatchilari boshqa sayohatchilarga qaraganda ko'proq vaqt qolishi va ko'proq pul sarflash imkonini yaratadi. Turizm iqtisodiyotning har bir tarmo'g'ida juda katta multipikator effektga ega hisoblanadi. Ammo turizmni yanada yuqori ta'sirini oshirish uchun yuqoriroq daromad olish yo'larini topish lozim bo'ladi. Shuning uchun uchun uzoqroq vaqt ularni eksport qiluvchi mamlakatda saqlab qolishimiz kerak bo'ladi.

⁷ Suggested Citation: Popescu, Delia; Saseanu, Andreea; Bulin, Daniel; Calabro, Grazia (2014) : Econometric Models in Romanian Tourism under the Impact of Sustainable Development, *Amfiteatru Economic Journal*, ISSN 2247-9104, The Bucharest University of Economic Studies, Bucharest, Vol. 16, Iss. Special No. 8, pp. 1063-1075

Foydalanilgan adabyotlar ro'yxati

1. <https://lex.uz/docs/-4143188> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.01.2019 yildagi PF-5611-son.
2. Fang Zhao Joseph Wallis Mohini Singh , (2015), "E-government development and the digitaleconomy: a reciprocal relationship", Internet Research, Vol. 25 Iss 5 pp. 734 – 766.
3. Li, E. ; Chen, Q. ; Zhang, X. ;Zhang, C. Digital GovernmentDevelopment, Local Governmens'Attention Distribution and EnterpriseTotal Factor Productivity: Evidencefrom China. Sustainability 2023, 15,2472.
4. Шнепс-Шнеппе М.А., Намиот Д.Е. Цифровая экономика: телекоммуникации – решающее звено. –М: Горячая линия. –Телеком, 2018. –150 стр
5. O'zbekxonov, S. ., Bo'ltakov, S. ., & Ko'charov, X. . (2022). Turizm sohasida raqamli iqtisodiyotning ahamiyati. *Yevroosiyo Akademik tadqiqotlar jurnali* , 2 (12), 60–62.
6. Tuxliyev, I. (2024). Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 1(1).
7. Z.O. Raximov (2022). O'zbekistonda turizm sohasida raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muhimligi. *Builders of the future*, 2 (2), 221-227.